



# ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-2, (February) 2024  
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

**XASANOV Jaxongir Eshkulovich**  
*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
magistranti*

## **PENSIYA JAMG'ARMASI TIZIMIDA PENSIYALAR TAYINLASH VA TO'LASH BO'YICHA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH**

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada fuqarolarga pensiya tayinlash tizimi, ijtimoiy himoya qilishda mazkur tizimning o'rni va ahamiyati, tizimda pensiya to'lashda ichki audit xizmatining o'rni, pensiya to'lash tizimini bugungi kundagi rivojlanishi va isloh etilishi va bu bo'yicha ishlab chiqilayotgan chora tadbirlar yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy hulosa hamda sohaga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pensiya, pensiya jamg'armasi, audit, pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqa, konsepsiya, ijtimoiy soha, sug'urta badali, imtiyozli pensiyalar, mehnat staji, jamgarib boriladigan pensiya, nodavlat pensiya ta'minoti.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА ПО НАЗНАЧЕНИЮ И ВЫПЛАТЕ ПЕНСИЙ В ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассмотрена система назначения пенсий гражданам, роль и значение этой системы в социальной защите, роль службы внутреннего аудита при выплате пенсий в системе, развитие и реформирование системы пенсионных выплат на сегодняшний день. и освещены меры, разрабатываемые в этом направлении. Также разработаны научные выводы и предложения и рекомендации по данной области.

**Ключевые слова:** пенсия, пенсионный фонд, аудит, пенсионное обеспечение, социальное пособие, понятие, социальная сфера, страховой взнос, льготные пенсии, стаж, накопительная пенсия, негосударственное пенсионное обеспечение.

## **IMPROVING THE INTERNAL AUDIT ON THE APPOINTMENT AND PAYMENT OF PENSIONS IN THE PENSION FUND SYSTEM**

### **ANNOTATION**

In the article, the system of assigning pensions to citizens, the role and importance of this system in social protection, the role of the internal audit service in the payment of pensions in the system, the development and reform of the pension payment system today, and the measures being developed in this regard are highlighted. given Also, scientific conclusions and suggestions and recommendations related to the field have been developed.

**Key words:** pension, pension fund, audit, pension provision, social benefit, concept, social sphere, insurance contribution, preferential pensions, length of service, accumulated pension, non-state pension provision.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida gap borganda birinchi navbatda aholiga beriladigan pensiya va nafaqalar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Shunday ekan, bu o‘z navbatida sohani doimiy isloh qilish, turli chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda tizimda amalga oshirilayotgan ishlarning doimiy tahlili va monitoringini amalga oshirgan holda auditdan o‘tkazib borishni taqozo etadi.

Shu o‘rinda aytish joizki, pensiya ta‘minoti tizimi iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida xalqimizning mehnatga layoqatsiz va muhtoj qismini turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan soha hisoblanadi.

Ushbu soha aholini hususan keksalarimizni keksalik jog‘larida himoyalash, xodimlarning mehnat faoliyati tugagach pensiyaga chiqish davrida ish haqqiga moslab hisoblangan oldindan to‘lanadigan muayyan miqdordagi mablag‘ bilan xodimni ta‘minlash, mazkur belgilangan pul mablag‘i kelgusida hayot darajasining pasayishidan himoyalash kabi asosiy maqsadlarni qamrab oladi.

Shuningdek, mazkur tizimining barqaror ravishda doimiy ishlashi jamiyatni ijtimoiy jihatdan barqarorligini ta‘minlashning asosini tashkil etsa va aksincha, pensiya ta‘minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltiradi (Borisenko, 2009). Shu nuqtai nazardan har qanday mamlakat ijtimoiy siyosatining eng muhim vazifalari tarkibida pensiya tizimini isloh qilish muhim ahamiyatli hisoblanadi.

*1-jadval*

*Pensiya jamg‘armasining hududiy tuman bo‘limlari hisobida turib pensiya oluvchilarning 2024 yil yanvar oyidagi o‘rtacha pensiya miqdori to‘g‘risidagi*

Hududlar nomi	Pensiyalar			
	jami	shundan:		
		yoshga doir	nogironlik	boquvchisini yo‘qotgan
Республика буйича	1 234 938,6	1 245 384,7	1 240 711,8	1 078 529,0
Қорқалпоғистон Республикаси	1 212 850,6	1 214 473,9	1 274 112,7	1 070 467,6
Андижон	1 057 622,4	1 058 084,3	1 111 264,8	962 053,4
Бухоро	1 254 998,9	1 255 765,2	1 283 175,4	1 164 607,6
Жиззах	1 154 375,8	1 147 219,2	1 287 602,3	1 072 421,2
Қашқадарё	1 201 840,8	1 204 469,3	1 224 141,9	1 131 814,0
Навоий	1 591 749,4	1 636 053,5	1 504 398,3	1 277 248,2
Наманган	1 051 017,0	1 056 552,5	1 095 536,4	924 338,2
Самарқанд	1 203 041,3	1 213 720,3	1 194 999,8	1 062 884,4
Сирдарё	1 245 066,1	1 230 679,1	1 368 335,5	1 105 659,1
Сурхондарё	1 125 352,6	1 127 219,7	1 162 272,2	1 054 162,8
Тошкент в.	1 364 958,2	1 387 451,6	1 286 695,0	1 166 212,5
Фарғона	1 103 208,6	1 105 602,3	1 122 644,4	1 015 270,6
Хоразм	1 150 789,9	1 153 450,4	1 192 262,7	1 021 690,8
Тошкент ш.	1 702 448,2	1 743 757,5	1 480 328,3	1 251 688,7

Yuqoridagi jadvalda ham ko‘rishimiz mumkinki bugungi kunda yurtimizda ham pensiya tayinlashda va to‘lashda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, birgina, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirishga oid bir qancha maqsadlar belgilangan bo‘lib, bularning barchasi aholini ijtimoiy jihadan yanada qo‘llab-quvvatlash hamda turmush farovonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022 yil 13 oktyabrda 592-son qarori qabul qilindi. Yangi tahrirda qabul qilingan nizomga asosan pensiya tayinlash va to‘lashda quyidagi qulayliklar yaratildi:

- Shaxs pensiya tayinlash uchun Pensiya jamg‘armasining rasmiy elektron pochtasiga ([pension\\_uz@pfca.mf.uz](mailto:pension_uz@pfca.mf.uz)) murojaat qilish imkoniyati yaratildi;

- Shaxsning arizasi Pensiya jamg‘armasining axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tkazilishi belgilab o‘tildi;

- Shaxsning ish staji va oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar axborot tizimlarida mavjud bo‘lgan taqdirda shaxsdan qo‘shimcha hujjatlar talab qilmasdan axborot tizimlaridagi mavjud ma‘lumotlar asosida pensiyalar tayinlanadi va hisoblab chiqiladi;

- 2005 yil 1 yanvardan avvalgi davrlar uchun ish staji mehnat daftarchasidagi mavjud yozuvlar yoki elektron mehnat daftarchasida tegishli ma‘lumotlar bo‘lgan taqdirda pensiya tayinlash Komissiyasi tomonidan tekshirish to‘g‘risida qaror qabul qilmaslik belgilandi;

- Pensiya tayinlashni so‘rab murojaat qilgan shaxs zarur hujjatlarni taqdim etmagan taqdirda, Pensiya jamg‘armasi bo‘limi ushbu hujjatlarni ya‘ni, arxiv yoki tashkilotlarga so‘rovnomalar yuborish bo‘yicha amaliy yordam beradi;

- Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda Pensiya jamg‘armasi bo‘limi qo‘shimcha yana qanday hujjatlar taqdim etilishi lozimligini ariza beruvchiga 5 kunlik muddatda yozma ravishda yoki ariza beruvchining mobil telefon raqamiga “SMS” xabarnomani yuborgan holda ma‘lum qilish joriy etilmoqda;

- Pensiya jamg‘armasi bo‘limi shaxsga va/yoki tashkilot ma‘muriyatiga pensiya tayinlash (qayta hisoblash) masalalari bo‘yicha tushuntirishlar hamda ma‘lumotlar berishi shartligi belgilandi; Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta‘minotiga oid ma‘lumot va axborotlar ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boradi;

- Nogironligi bo‘lgan bolani o‘z qaramog‘iga olgan oilaning a‘zosi ushbu nogironligi bo‘lgan bolaga qarab turilgan vaqtini ish staji sifatida hisobga olish tartibi belgilandi;

- Pensiya tayinlash (qayta hisoblash) uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidan, Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reestridan va fuqarolar ish haqining yakka tartibdagi hisobini yuritishning markazlashtirilgan elektron reestridan, Yagona milliy mehnat tizimi idoralararo dasturiy-apparat kompleksi va boshqa vazirlik idoralarning axborot tizimlaridan olinganida Pensiya jamg‘armasi bo‘limi pensiya tayinlash uchun mavjud ma‘lumotlarni tekshirish to‘g‘risida qaror qabul qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi; Elektron mehnat daftarchasi ham ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat sifatida hisobga olinadi;

- Pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlar to‘lanishi kerak bo‘lgan oyning birinchi sanasi uzoq muddatli dam olish yoki bayram kunlariga to‘g‘ri kelganida Moliya vazirligining qaroriga asosan avvalgi oy yakuniga qadar muddatidan avval pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarning to‘lov qaydnomalarini shakllantirish xuquqi berildi;

- Pensioner vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli ko‘rsatib o‘tilgan oila a‘zolariga vafot etgan oy uchun to‘liq miqdorda to‘lanadi;

Pensioner vafot etgan oyda uning bank plastik kartasiga kiritilgan mablag‘lar Pensiya jamg‘armasiga qaytarilmaydi;

- Fuqaroning xohishiga ko‘ra pensiyalar doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha tayinlanadi va to‘lanadi.

Professor J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta‘minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo‘lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta‘minotining dolzarb masalalarini ko‘tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta‘minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e‘tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o‘zgarishlarni tadqiq etadi.

Pensiya ta'minotiga ta'sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli; AQSh va butun dunyoda aholining umrguzaronligi; ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning taqchilligi; xususiy tarmoqdagi ishchi-xodimlar uchun an'anaviy pensiya ta'minotining yo'qolib borayotganligi; davlat sektoridagi ishchixodimlar uchun pensiyalar taqdim etish bahosining oshishi; tibbiyot xarajatlarining yuqori darajada o'sishi. AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlab berishi lozim bo'ladi (Peng, 2008).

Iqtisodchi-olim Yu.N.Borisenko tadqiqotlari fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadi ekanligi, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanishi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltirishi kabilar bayon qilingan (Borisenko, 2009).

Valentin Roik ta'kidlashicha, pensiyaning miqdori fuqarolar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari va olgan ish haqi miqdoriga bog'langan hamda yollanib ishlayotgan ishchilarning majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari nazarda tutilgan (Roik, 2012).

Fedotov A.I. tadqiqotlarida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ijobiy jihatlari jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni yaratish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shartsharoitlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining salbiy xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, pensiya islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda ushbu tizimni aholining keng qatlamlari tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lishlari mumkin. Boz ustiga, "pensiya islohotlarini endigina boshlayotgan mamlakatlar uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimining taqsimlanuvchi pensiya tizimi bilan o'zaro munosabatlarida bu muammolar yanada o'tkir tus olishi mumkin" (2015). Shuningdek, ushbu tizimda moliyaviy risk darajasi yuqori bo'ladi, ayniqsa, nobarqaror iqtisodiyot sharoitida bu nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining kelajagi nisbatan porloqdir.

Bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, pensiya tizimidagi islohotlar ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuviga, ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minotiga, fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlashga, shuningdek, fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalashga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni yaratish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlashga qaratilgan.

Ammo, pensiya tizimini isloh qilish, avvalo, har bir mamlakatdagi demografik holat va iqtisodiyotning taraqqiyoti va boshqa omillar asosida amalga oshirilishini taqozo etadi.

Amalga oshirilayotgan tadqiqotimiz mavzusi pensiya jamg'armasi tizimida pensiyalar tayinlash va to'lash bo'yicha ichki auditni takomillashtirishra bag'ishlanganligi sababli shu mavzu doirasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning pensiya tizimini xususiyatlari, davlat pensiya ta'minotini isloh qilishdagi yondashuvlari tadqiq etilgan hamda tizimli yondashuv, umumlashtirish, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Yuqorida kirish qismida qayd etib o'tgan Nizomning 197-bandiga asosan, pensiyalar tayinlash va to'lashni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limi hamda hududiy boshqarmalarning Ichki nazorat va pensiya, nafaqa hamda boshqa to'lovlarni tayinlash monitoringi shu'basi tomonidan amalga oshirilishi hamda

tekshirish (o‘rganish) o‘tkazilayotgan sanadan avvalgi uch yil va undan ortiq davrda tayinlangan va (yoki) qo‘shimcha taqdim etilgan hujjatlarga binoan qayta hisoblangan pensiyalarning tekshirilishiga (o‘rganilishiga) hamda ular bo‘yicha to‘langan ortiqcha summalarning ushlab qolinishiga (undirilishiga) yo‘l qo‘yilmasligi belgilab quyilgan.

Shu o‘rinda, tadqiqot mavzumiz doirasida amalga oshirgan izlanishlarimiz va tahlillarimiz ham bugungi kunda pensiya tayinlash va to‘lash jarayonidagi amalga oshiriladigan o‘rganishlar va audit xizmatining anchayin tezkor va shaffof holga kelayotganini ko‘rsatmoqda.


O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo‘yicha yuklama tobora oshmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyoda o‘rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yosh. Qozog‘istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga etkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo‘li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi.

Ijtimoiy badallar miqdori va to‘lovlar o‘rtasida mutanosiblikka rioya etish, band bo‘lgan aholining pensiya ta‘minotini sug‘urtalanganlik xarakterini ta‘minlovchi asosiy prinsip hisoblanadi hamda pensiya tizimini moliyalashtirishda o‘zining moliyaviy ishtirokini rag‘batlantiruvchi ta‘sir mexanizmi sanaladi. Fuqarolarning ijtimoiy sug‘urta tizimida uzluksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo‘lmasdan qolmoqda, buning natijasida mehnatga layoqatli aholining tahminan 10,2 mln. kishi davlat ijtimoiy sug‘urtasi bilan qamrab olinmagan, ya‘ni byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy ajratmalarni amalga oshirmayapti.

Xalqaro mehnat tashkilotining talabari muvofiq, fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 1 : 4 darajada bo‘lishi ko‘rsatilgan. Biroq, bugungi kunda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1 : 1,5 ga teng.


*O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatining tuzilmasi*



Бошқарув ходимлари умумий чекланган сони — 55 нафар.  
Техник ва хизмат кўрсатувчи ходимлари сони белгиланган меъёрларга мувофиқ аниқланади.

Yuqoridagi Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tashkiliy tuzilmasiga e'tibor beradigan bo'lsak, mazkur sohada ichki audit bo'limini to'g'ridan to'g'ri ijro etuvchi direktorga buyusinishini ko'rish mumkin. Pensiya jamg'armasi mablag'larining sezilarli qismi imtiyozli shartlardagi pensiyalarni va pensiyalarga ustama haqlarni moliyalashtirishga sarflanadi. Imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizni tashkil etib, shundan, yoshga doir pensiyalar 23,7 foizni tashkil etadi. Yiliga o'rta hisobda 39,8 mingta imtiyozli pensiyalar tayinlanmoqda. Shu bilan birga, imtiyozli shartlardagi pensiyalarning o'rtacha miqdori yoshga doir pensiyalarning o'rtacha miqdoridan (543,2 ming so'm) yuqori bo'lib, 3 – sonli Ro'yxat bo'yicha o'rtacha pensiyalar 742,6 ming so'mni, 2 – sonli Ro'yxat bo'yicha pensiyalar 951,3 ming so'mni va 1 – sonli Ro'yxat bo'yicha pensiyalar 1 025,4 ming so'mni tashkil etadi. Shuningdek, pensiya miqdori va xodimning mehnat davomiyligi ulushi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham sezilarsiz. Amaldagi pensiya ta'minoti tizimi, 7 yildan kam bo'lmagan stajga ega bo'lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi. Ushbu huquq faqatgina 7 yil ishlab va o'zining butun mehnatga layoqatlilik davri uchun Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirishda eng kam hissa qo'shgan shaxslarga pensiya olish imkonini beradi.

*Ba'zi bir mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi (pfru.uz)*




Xalqaro mehnat tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konventsiyasiga muvofiq, yoshga doir pensiyani tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish staji 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko'plab davlatlari, shu jumladan, MDH davlatlarida talab etilgan eng kam ish staji 10-15 yil darajasiga etkazilgan.

*O'zbekistonda ish stajiga muvofiq o'rtacha pensiya miqdori (pfru.uz)*  
*Ish stajining davomiyligi, yil*



Ish stajiga nisbatan 7 yil davomiylikdagi minimal talabning mavjudligi fuqarolarning davlat ijtimoiy sug'urtasidagi ishtirokida salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda ish haqining o'rtacha darajasida 30 yil ish stajiga (talab etilgan – 25 yil) ega bo'lgan erkak kishining pensiya miqdori bilan 10 yillik ish stajiga ega bo'lgan (minimal talab etilgan – 7 yil) erkak kishining pensiya miqdori o'rtasidagi farq taxminan 200 ming so'mni tashkil etadi.

*Ayrim davlatlarda talab etiladigan eng kam ish staji (pfru.uz)*



Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish kontsepsiyasi, ayni vaqtda, ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi zarur va dolzarb bo'lgan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardandir. Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishda quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutish zarur hisoblanadi. Jumladan:

**Birinchi**dan, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining joriy holati;

**Ikkinchi**dan, mamlakatdagi demografik omillar;

**Uchinchi**dan, pensionerlar (yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik) soni va uning jami aholi tarkibidagi ulushi;

**To'rtinchi**dan, imtiyozli shartlardagi pensiyalar;

**Beshinchi**dan, pensiyalarga ustama haqlar, pensiyalarning o'rtacha miqdori, aholining o'rtacha umr davomiyligi yoki yashash muddati;

**Oltinchi**dan, pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, pensionerlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ish bilan band aholi (sug'urta badali to'lovchilar) sonining pensionerlarga nisbati;

**Yettinchi**dan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligi, pensiya ta'minotining etarlilik darajasi, mehnat migrantlarining davlat pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi;

**Sakkizinchi**dan, ish bilan band aholining pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi; pensiyaga chiqish yoshi va boshqa omillar chuqur tahlillar asosida atroflicha o'rganilishi va bayon qilinishi lozim deb hisoblaymiz.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Borisenko N.Yu. Pensionnoe obespechenie. Uchebnik. – M.: «Dashkov i K0», 2009. – S. 8.
2. Natalia Grishchenko. Pensions after pension reforms: A comparative analysis of Belarus, Kazakhstan, and Russia. 1st International Conference on Applied Economics and Business, ICAEB 2015. Procedia Economics and Finance 36(2016) 3–9.
3. Tursunov J.P. Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta’siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi. Tom 24 № 6 (2022): *Ekonomika i obrazovanie*
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son).
5. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 45.
6. Valentin Roik. *Ekonomika, finansi i pravo sotsialnogo straxovaniya. Instituty i straxovye mexanizmy.* – M.: «Alpina Pablisher», 2012. – C. 56 s. Fedotov A.I. *Istoriya vozniknoveniya pensionnyx sistem v zarubejnyx stranax.* Trudy ISA RAN 2006. T. 23. [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi rasmiy veb sayti
7. Konvensiya Mejdunarodnoy Organizatsii Truda “O minimalnyx normax sotsialnogo obespecheniya” (№102). – 32 c.